

QISSASI RABG'UZIYDAGI NUH QISSASI VA QUR'ONI KARIM THE STORY OF NOAH IN THE RABGUZI AND THE HOLY QURAN

*Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti talabasi
Yo'ldoshboyeva Durdona Muxiddin qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alloh taoloning ulug' payg'ambarlaridan biri bo'lgan Nuh alayhissalomning hayoti, da'vat yo'li va tarixiy vazifasi yoritiladi. Maqolada Nuh (a.s.)ning qavmini Allohga ishonishga da'vat qilganlari, ularning inkorchiligi, to'fon voqeasi hamda Nuh (a.s.)ning sabr-toqati va iymondagi mustahkamligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqola "Qissasi Rabg'uziy" va tafsir asosida yozilgan bo'lib, Nuh (a.s.)dan olinadigan saboqlar va ularning bugungi hayotimizdagi ahamiyati haqida ham tahliliy fikrlar bayon etiladi.

Abstract: This article discusses the life, calling, and historical mission of Noah, one of the great prophets of Allah. The article provides information about Noah's (a.s.) calling his people to believe in Allah, their denial, the flood, and Noah's (a.s.) patience and steadfastness in faith. The article is also based on the "Story of Rabghuzi" and its commentary, and it also presents analytical thoughts on the lessons that can be learned from Noah (a.s.) and their importance in our lives today.

Kalit so'zlar: Payg'ambar, Iblis, Kofir, zolim, Nuh, oyat, Som, Xom, Yofas, osmon.

Key words: Prophet, Devil, Infidel, Tyrant, Noah, verse, Shem, Ham, Japheth, sky

Nuh payg'ambar alayhissalom insoniyat tarixidagi eng buyuk payg'ambarlardan biridir. U zot Alloh tomonidan elchi qilib yuborilgan va o'z qavmini to'g'ri yo'lga chiqarishda ulkan sabr va matonat ko'rsatgan. Qur'oni Karimda Nuh alayhissalom haqida Moida, Qamar, Xud, yana bir necha suralarda batafsil hikoya qilinadi, hatto unga bag'ishlangan alohida sura – "Nuh" surasi ham mavjud.

Nuh nabiy ibn Malik ibn Idrisdir. Onasining oti Shamxo binti Anursh edi. Nuhdan Odamga qadar o'n ota o'tdilar, hammalari musulmon bo'lganlar. Surada Nuh alayhissalom o'z qavmini imonga da'vat qilgan kezlarida ulardan ko'rgan jabru jafolari va oxiri tavfiq topmagan kofir qavmlarining tug'yoni avj olib ketgandan keyin ularning haqlariga duoyi bad qilganlari to'g'risida oyatlar bor. Bu haqida asarda, "Kunlardan bir kun Iblis dedi: - ey Nuh, menga sherik qilding. Agar sheriklarim, qo'ldoshlarim, askarlarim yig'ilib kelsa, bu yerga sig'mas edilar. - Sherik qilganim nimadir? – so'radi Nuh. – Sen duo qilganding, qavming halok bo'ldi. Hammasi jahannam ichra menga qo'ldosh bo'ldilar. Sabr qilganingda ba'zilar imon keltirardi, shu afzal edi, -

dedi Iblis. – Ey koshik, koshki sabr qilgan bo'lganimda ba'zilar musulmon bo'lardi, menga bunday ta'na tegmas edi, - deya Nuh tun-u kun nola qiladi” .

Nuh alayhissalom iymonga da'vat qildi: -Allohning yagonaligiga iymon keltiring, mening payg'ambarligimga iqroq bo'ling! Kofirlar esa Uni ura boshladilar. Shu qadar urdilar,ki, suyaklari sindi, siniq suyaklari teri ichidan behad darajada qaqshardi, bunga chidash qiyin edi. Yotsa, kechasi bilan Alloh taolo unga shifo berar edi, kun sayin Jabroil alayhissalom kelib, da'vatga buyurishini aytar edi.

Nuh alayhissalom o'z qavmini kechasi-yu kundizi da'vat qildi. Lekin ular quloq solishmadi. Nuh alayhissalom har xil usullarida (maxfiy gapirdilar, ochiq gapirdilar, baqirib gapirdilar,) da'vat qilsa ham foyda bermadi.

Ellik kam ming yil da'vat qilgani haqida asarda ham keltirib o'tilgan. “Ankabut” surasining 14-oyatida ham Nuh alayhissalom 950 yil payg'ambarlik qilgani haqida ma'lumotlar bor. Nuh alayhissalomning necha yil umr ko'rgani to'g'risida turli xil tafsirlar mavjud.

“ Biz Nuhni o'z qavmiga (payg'ambar qilib) yubordik. Bas, u ularning orasida ellik yili kam ming yil turdi. Bas, ularni zolim (kofir) bo'lgan hollarida to'fon (balosi) tutdi” {Ankabut surasi, 14-oyat}.

Shuncha yil da'vat qilishiga qaramasdan, oz sonli odamlar unga ergashadilar. Xattoki o'z xotini ham kofir edi. Nuhning umidi uzildi, ko'ngli og'ridi, duo qildi: “ Parvardigoro, yer yuzida birorta kofirni qoldirmagin”. Alloh taolo Nuh alayhissalomning bu duosini qabul qildi. Shundan so'ng Alloh kema yasashini vahiy qiladi. Jabroil alayhissalom Nuh alayhissalomga kema yasashni o'rgatib turadi. Rivoyatlarga ko'ra, kemaning uzunligi 1 km edi. Uni taxminan 100 yilda qurib tugatdi. Kemani tog'ning ustiga quradi.

Hadislarda ham, “ Qissasi Rabg'uziy” asarida ham keltiriladi. Kofirlar kema yasayotkanini ko'rib masxara qilar edilar: - “Sen payg'ambar eding, endi duradgor bo'lib qolding!” buni nima qilmoqchisan o'zi?!

- Kema qilyapman, unga minib, suv ustida suzarman, - dedi Nuh ularning so'rog'iga javoban.

- Egar yo'narsanmi, avval eshak olgil, deb kulishadi. “qachon uning yonidan qavmning raislari o'tsa, uni masxara qilar edilar”.

- Nuh dedi “ Agar sizlar bizni masxara qilsalaringiz, bizlar ham sizlar kabi masxara qilamiz. Juda tezda bilasizlar”.

- To'fon vadasi qachon bo'lur? – so'radi Nuh.

- Qachonki, tandiring ichidan suv chiqsa, balki azob kelgan turur, - degan xitob keldi.

Kema bitdi, u uch qavat edi (birinchi qavatida chorva hayvonlari, ikkinchisida Nuh qavmi, uchinchisida qush-u qurtlar joy olgandi). Kema bitgach, Nuhning kofir xotini non pishirayotgan chog'da tandir ichidan suv chiqdi. U kelib Nuhga xabar qildi.

Nuh o'sha sakson kishi bilan kemaga chiqdi. Shunda farmon keldi: (Oyat) "Mindir kemaga har xil jonivorlardan bir er va bir urg'ochisini va ahlingni ham. Yana o'g'lonlaringni ham chiqargil!"

Kemaning oldida hayvonlar juft bo'lib turardi. Undan keyin yerdan buloqlar otilib chiqadi, osmon ochilib yomg'ir yog'iladi. Suv haddan tashqari ko'p bo'ladi. Eng baland tog'dan 15 metr baland bo'ladi.

Nuh alayhissalom kemaga hammani olib chiqarayotkanda, bir it ergashgan ekan. Sen it nima qilyapsan deb Nuh alayhissalom tepib yuborgan ekanlar. Shunda it tilga kirib, men ham Alloh yaratgan maxluqmanku deganlarida, hazrati Nuh bundan ibrat olib bir umr yig'lab yurgan ekanlar. Bu voqea nega keltiriladi? Bizga ibrat uchun, albatta. Nuh payg'ambar itga ozor bergani uchun bir umr yig'laganlar. Hozirgi odamlarchi? Hayvonlar qolib, insonlar bir-birlariga ozor beryapti.

Nuh alayhissalomning 4 ta o'gli bor edi: Som, Xom, Yofas va Kanon. Nuh alayhissalomga ahlingni chiqargil deb xitob bo'ladi. O'g'li Kanonni ham kemaga chiqarmoqchi bo'lgandi, yorlig' keldi: "Chiqarmagil, u kofirdir!"

– Iloho, ahlingni chiqargil, deb aytgan eding-ku? – so'radi Nuh.

– U sening ahlingdan emas! – degan xitob keldi.

– Ey Kanon, musulmon bo'lgil, kemaga kirgil, to'fon suvi halok qilg'usidir, – dedi Nuh.

– Men baland tog'larga sig'inarmen, tog'lar meni suvdan qutqargay, – dedi Kanon.

– Bugun Ollohdan boshqa azobdan saqlaguvchi hech kim yo'qdir, – dedi Nuh.

– Xudoning rahmatiga sazovor bo'lgan odamgina omon qoladi. Shu paytda suv keldi, halok qilgudek bo'lib, Kanon tog' tepasiga qarab qochdi. Suv ko'tarila borib oyog'iga yetdi. Kanonning bir o'g'li bor edi, suvdan qutulmoqchi bo'lib, uni oyog'i ostiga olib ustiga chiqdi, bolasi o'ldi, sal o'tmay o'zi ham halok bo'ldi, iymonsiz ketdi.

Olti oy o'tgach, Avjga(ism) farmon bo'ldi: – Kemani sudragil! Kemaning quyrug'idan tutib sudramoqlikka biror kimsaning quvvati yetmas edi. Avjni shu sababdan ham Olloh taolo halok etmadi. Shundan keyin farmon bo'ldi: (Oyat) Va hukm Ilohi tomonidan aytilniki, "Ey yer, suvingni yut!" va "Ey osmon, yog'ishingni to'xtat!" Osmon yog'ishdan to'xtadi, suvlar yer yuzidan quridi. Ma'lumki, yer yumaloqdir, atrofi tog'lar turar. Suv to'rt tarafdin Kof tog'iga kelib to'xtadi, keyin pastlay boshladi. Yerning atrofi muhit daryosi bo'ldi. Muhitdan muhitga ulangan suvlar dengiz bo'ldi. Yer yuzasidagi tog'lar, chuqurlar, ko'llar hammasi to'fon suvi bilan buzilib, izdan chiqdi. Dengizlar suvi achib, sasib odamlar o'lib ketdilar. Tog'larga xitob keldi: – Men Nuhning kemasini tog'larda turgizgayman! Hamma tog'lar bosh ko'tardilar, zora kema bizda turgay, deya. Judiy tog'i hamma tog'lardan past edi. U xokisorlik bilan "Menga bu karomat qaydan ham tegishli bo'lsin", deya o'zini past tutdi. Olloh taolo uni ixtiyor etdi, kema unda turmoq uchun pastlay boshladi.

Kemada Nux alayhissalomning – uch o'gli – Som, Xom, Yofas va ularning xotinlari bilan qo'shib hisoblaganda 78 kish bo'lib, ularning yarmi erkak, yarmi ayollar edi. Ularning miqdori 10 ta yoki 80ta edi, degan rivoyatlar ham bor.

(Oyat) “Ey Nuh, biz tomondan bo'lgan salomatlik ila tush!” degan farmon bo'ldi. Nuh qirq er va qirq xotin bilan kemadan tushdi va Shom viloyatida dengiz bo'yida bir qishloq qurdilar. Uni “Qaryat ul-samonina” deb atadilar. Olti oy suv ichida turganlarida shamol kelmagandi. To'satdan shamol keldiki, bu ularga yoqmadi, kasal bo'ldilar. Oqibatda hammalari o'lib, yetti kishigina qoldilar. Nuhning o'zi uch o'g'li va uch kelinidan boshqa biror kishi qolmadi. Bugun kelib odamlarning yovuzlari, yaxshilari, mo'minlari, kofirlari – hammasi Nuhning farzandlaridan bo'lar. Katta o'g'lini Som, o'rtanchasini Hom, uchinchisini Yofas der edilar.

Bir kuni Nuh uxlayotgandi, shamol kelib etagini ko'tardi. Shunda uning uyati joyi ochilib qoldi. Uni ko'rgan Hom kuldi, Som esa uni malomat qildi, Yofas kelib to'ni bilan yopib qo'ydi. Olloh taolo bu shumlikning yomonligi tufayli Homning pushtikamaridagi urug'larini qora qildi. Uyalganidan xotining qo'lidan tutib, dengiz qirg'og'ida qamishdan uy qilib, yashay boshladi. Shunday qilib, hindular, habashlar, zangilar – hammasi uning urug'idan bo'ldilar. Arablar va Ajamlarning otasi Som bo'ldi. Homni Hindistonga (hindular yurti demoqchi), Somni arab va ajam viloyatlariga jo'natdi. Yofas esa Turkiston viloyatlariga keldi. Hamma turkiy xalqlar uning urug'idan tarqaldi. Shu boisdan turklar aziz va mukarram bo'ldilar. Bu so'zlar Abu Is'hoq Nishopuriy jam qilgan “Qissasi al-anbiyo”da bitilgandir. Boshqa olimlarning aytishlaricha, Ya'juj va Ma'juj ham Yofas urug'idan chiqar. Ka'b rivoyatiga ko'ra, Odam Ato uxlayotgan chog'da tush ko'radi. Nutfa yerga tomib, tuproqqa qorishadi. Olloh taolo undan Ya'jul va Ma'jujni yaratdi. Shu bois bizlarga ota tarafdin bog'lanib, qarindosh bo'lar. Havvo ona tarafdin bog'lanmas, o'gay bo'larlar. Abdulloh ibn Abbos (Ollloh undan rozi bo'lsin): “Odam farzandlari o'n hissadir, uning to'qqiz hissasi Ya'juj va Ma'juj, bir hissasi jamiki odamlardir”, degan.

Foydalanilgan manbalar:

1. Qissasi Rabg'uziy
2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.
3. <https://youtu.be/7IKjXRkjHMc?si=9X-a1B04NVWoWoHF>
4. <https://youtu.be/5WteBSzInnA?si=PQQ6obeLn5YkDWbP>
5. https://youtube.com/shorts/KBv_MUjUF5c?si=yG1hn4npa2DeT1Ry